

YOSHLARNI AXBOROT HURUJLARIDAN HIMOYA QILISHDA MILLIY G‘OYANING AHAMIYATI

Qo‘shshayeva Muhayyo Faxritdin qizi

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada axborot huruji, uning yoshlar ma’naviyatiga ta’siri va milliy g‘oyaning axborot iste’mol madaniyatini shakllantishdagi o‘rni yoritilgan, shuningdek o‘sib kelayotgan yosh avlodda axborot hurujiga qarshi “immunitet” shakllantirishning dolzarblii tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: Milliy g‘oya, mafkura, axborot, axborot huruji.

KIRISH

Texnika asrida yoshlarning davlatni rivojlantirishga qo‘shadigan hissasi juda ulkandir. 2022-yil holatiga ko‘ra, O‘zbekiston aholisining 9 milliondan oshig‘ini yoshlar tashkil qilgan. Texnika-texnologiyalar jadal rivojlanayotgan bir paytda yoshlarning mafkurasini tarbiyalash, to‘siq qo‘yib bo‘lmaydigan axborotlar kirib kelayotgan zamonda ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishga e’tibor qaratish juda muhimdir. 2022-yil 19-yanvar kuni «Ma’naviy ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish»ga bag‘ishlangan videoselekrda prezidentimiz Sh.Mirziyoyev quyidagi gapni aytib, mamlakatimiz mafkurasining asosiy g‘oyasi nimalardan iborat ekanligini ma’lum qildi: «Biz yaratayotgan yangi O‘zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g‘oyasi bo‘ladi». Chetdan kirib kelayotgan axborot hurujlari esa mafkuramizga putur etkazadi. Misol qilib, Gallivud filmlarini olaylik. Bu filmlardagi sahnalar, asosan, otishmalardan tashkil topgan yoki ur-yiqitlar filmning asosini tashkil etadi. Filmlarning to‘g‘ridan to‘g‘ri iste’molchilari bo‘lgan yoshlar bulardan ozuqa oladi va ularga taqlid qila boshlaydi. Ularning ongida

odamiylik, ezgulik singari hislar o‘zgaradi. Mana shunday sharoitda milliy g‘oya o‘rtaga chiqadi¹. Milliy g‘oya yoshlarga uzlusiz ta’lim tizimi orqali uqtirib boriladi.

Dastlab, maktabgacha ta’lim muassasalari bolalarning ongida ezgulik, mehribonlik, mehnatsevarlik kabi ezgu tuyg‘ularning shakllanishida poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Lekin shuni ham unutmaslik kerakki, bola tarbiyaning asosiy qismini oiladan oladi.

Hozirgi kunda zangori ekranlarda bolalar uchun alohida kanallar faoliyat yuritadi. “Bolajon”, “Aqlvoy” kanallari shular sirasiga kiradi. Ularning jippi tomoshabinlari esa bulardan insonlarga yordam berishni o‘rganish bilan bir qatorda “ommaviy madaniyat”ni ham o‘rganadilar va ularning ta’siriga tushib qoladilar. Misol uchun multiqahramonlarning kiyinishi va soch turmaklarini olaylik. Ularning milliyligimizga to‘g‘ri kelmaydigan liboslari va turli rangga bo‘yalgan sochlari bolalarni o‘ziga tortishi tabiiy hol². Shuning uchun ham bog‘chada tarbiyachilar, uyda esa ota-onalar farzandlariga milliyligimizni, ezgulik nima ekanligini, odamiylik qandayligini, insonlarga yordam berish, halol va adolatli bo‘lishni o‘rgatishlari lozim va ularni amalda ko‘rsatib ham berishlari muhimdir. Chunki bola oilada ota-onasiga, bog‘chada tarbiyachisiga taqlid qiladi.

NATIJALAR

Bolalar uchun keyingi bosqich maktab ta’limi hisoblanadi. Maktab ta’limida bola o‘zi uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladi. Shu bilan bir qatorda, unda vatanparvarlik hissi ham shakllana boshlaydi. Bular kurtak yozayotgan bir paytda axborot hurujlarining ortishi ularning ongiga ta’sir o‘tkazadi. Ularga eng katta e’tibor qaratish kerak bo‘lgan vaziyatga tushib qoladi. Yangi darsliklarda qo‘llanilayotgan usullar esa ularning axborot olish ehtiyojini bir karraga qondiradi, ya’ni ular darsliklarda berilgan topshiriqlarni telefondan bajarishadi. Masalan, matnni tinglashadi va shu asosida berilgan savollarga javob yozishadi. Tarbiya

¹ Xamrayev Sardorbek Sharafutdinovich (2022). “O‘zbekistonda ekoturizm barqarorligini ta’minlashda ekologik ta’lim va tarbiya jarayonlarini integrationsyalash zarurati”. Восточный ренессанс: Инновационные, образовательные, естественные и социальные науки, 2 (12), 850.

² Raxmankulov, F. (2023). “Mulkdorlar qatlamida ijtimoiy mas“uliyat tuyg „usini shakllantirish masalalari. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari”/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(11)

darsliklaridagi milliy g‘oyani yoshlar ongiga singdirishga qaratilgan audio matnlar esa yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Endi o‘quvchilar ongida kelajakda kim bo‘lishlari haqida, ularning tanlaydigan va ega bo‘lishi kerak bo‘lgan kasbi vatan ravnaqiga hissa qo‘sishi haqida milliy g‘oya, mafkura haqida o‘yay boshlaydilar. Davlatimiz tomonidan ularga berilayotgan huquq va erkinliklar ularning milliy mafkuraga bo‘lgan ishonchini orttiradi hamda ertangi kuniga umid paydo qiladi. Insonlarga nisbatan fikrlashi, ularga yordam berish hissi kuchayadi.

MUHOKAMA

Yoshlar oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirganlaridan keyin esa yanada kengroq fikrlay boshlaydilar. Ular iste’mol qilayotgan axborotlar qanday xususiyatlarga ega ekanligini anglaydilar. Bunday hurujlardan himmoyalanish uchun milliy g‘oyaning ne chog‘li muhim ekanligini tushunadilar. Shunday sharoitda targ‘ibot, tashviqot jarayonlarining bo‘lib o‘tishi milliy g‘oyaning qirralarini ohib beradi¹.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarni axborot hurujlaridan himoya qilish nuqtai nazaridan milliy g‘oya mavzusi jamiyat xavfsizligini ta’minlashning dolzarb va muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Yoshlarga qaratilgan axborot xurujlarlari ularning dunyoqarashi, qadriyat yo‘nalishlari va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin².

Axborot hurujlarlariga qarshi kurashning asosiy vositalaridan biri bu jamiyat birligini mustahkamlash va yoshlarning o‘ziga xosligini mustahkamlashga yordam beradigan milliy g‘oyani ishlab chiqish va ilgari surishdir. O‘z fuqarolarini hayotga bo‘lgan qarashlarini buzishi mumkin bo‘lgan tashqi ma’lumot manbalarining salbiy ta’siridan himoya qila oladigan davlat qiyofasini yaratishga intilish muhimdir.

Yoshlarni samarali himoya qilish uchun tanqidiy fikrlash va media savodxonligini shakllantirishga qaratilgan ta’lim tizimlarini joriy etish zarur. Ijobiy

¹ Raxmankulov, F. (2023). O‘zbekistonda mulkdorlar qatlami shakllanishining huquqiy asoslari. Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования, 2(13), 58- 61.

² Raxmankulov, F. (2023). O‘zbekistonda mulkdorlar qatlami shakllanishining huquqiy asoslari. Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования, 2(13), 58- 61.

qadriyatlar, vatanparvarlik va fuqarolik javobgarligini tarqatish uchun ommaviy axborot vositalaridan faol foydalanish ham muhimdir. Texnologiyalarni rivojlantirish axborot hurujlarlaridan himoya qilish usullarini doimiy ravishda takomillashtirishni talab qiladi. Axborot xavfsizligining zamonaviy usullarini ishlab chiqish va joriy etishda davlat, ta’lim muassasalari va jamoat tashkilotlarining birgalikdagi sa’y-harakatlari jamiyat barqarorligi va barqarorligini saqlashning ajralmas qismiga aylanmoqda.

XULOSA

Xulosa o‘rnida yoshlarni axborot hurujlarlaridan himoya qilish bo‘yicha milliy g‘oya milliy xavfsizlikni ta’minlashning asosiy elementiga aylanadi. Yoshlarning ijobjiy o‘ziga xosligini shakllantirish va tashqi ta’sirlardan himoya qilishga qaratilgan siyosatni samarali amalga oshirish va qo’llab-quvvatlash axborot asrida mustahkam jamiyat qurishda muhim rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sh.Mirziyoyev rahbarligida “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari” bo‘yicha o’tkazilgan videoselektor yig‘ilishidan nutq.
2. Falsafa qomusiy lug‘at mualliflar jamoasi. T.: O‘zbekiston faylasuflar milliy nashiriyoti, 2004.-492 bet.
3. Raxmankulov, F. (2023). “Mulkdorlar qatlamida ijtimoiy mas“uliyat tuyg,,usini shakllantirish masalalari. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”/Aktualные проблемы сotsialno-gumanitarnых nauk/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(11).
4. Raxmankulov, F. (2023). “O‘zbekistonda mulkdorlar qatlami shakllanishining huquqiy asoslari”. Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования, 2(13), 58-61.

5. Raxmankulov, F. (2023). “O‘zbekistonda mulkdorlar qatlami shakllanishining huquqiy asoslari”. Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования, 2(13), 58-61.
6. Xamrayev Sardorbek Sharafutdinovich (2022). “O‘zbekistonda ekoturizm barqarorligini ta’minlashda ekologik ta’lim va tarbiya jarayonlarini integrationsyalash zarurati”. Восточный ренессанс: Инновационные, образовательные, естественные и социальные науки, 2 (12), 850.
7. Xamrayev, S. (2023). “Ekoturizm jarayonlarini rivojlanishining tarixiy evolyusiyasi. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari”/Актуалные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(11).
8. Шарафутдинович К.С. (2023). Необходимость интеграции процессов экологического образования и обучения в обеспечении стабильности экотуризма в Узбекистане. Лучший журнал инноваций в науке, исследованиях и разработках , 2 (10), 230–233.
9. Хамраев, С. (2023). ИСТОРИЧЕСКИЕ ПЕРИОДЫ СТАНОВЛЕНИЯ ЕКОТУРИЗМА В МИРЕ. Инновационные исследования в науке, 2 (10), 15-17.
10. Rashidovna, H. M. (2023). TEMURIY MALIKALARNING HAYOTI VA FAOLIYATIGA TARIXIY NAZAR. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(4), 763-772.